

Xolmatova Ro'zixon Akmaljon qizi.*FarDU 1-kurs magistranti*

+998901622943

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola Ulug'bek Hamdamning "Bir piyola suv" hikoyasi tahliliga bag'ishlangan. Hikoya filologik tahlilga tortilish davomida undagi obraz, detal va ramzlar ifodalab bergan ma'nolar oydinlashtirilgan.

АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящена анализу рассказа Улугбека Хамдама «Чашка воды». В ходе филологического анализа повести были выяснены смыслы, выраженные в образе, деталях и символах в нем.

ABSTRACT

This article is devoted to the analysis of Ulugbek Hamdam's story "A Cup of Water". During the philological analysis of the story, the meanings expressed by the image, details and symbols in it were clarified.

Kalit so'zlar: *Peyzaj, portret, ruhiyat, obraz, detal, tasvir*

Ключевые слова: Пейзаж, портрет, дух, образ, деталь, образ

Key words: Landscape, portrait, spirit, image, detail, image

"Bir piyola suv" hikoyasi falsafiy hikoya bo'lib, bu hikoyada mavzusi bir piyola suv deb atalishi insonning bu hayotga kelishi bir marotaba ya'ni insonning umri o'ta qisqaligi, faqatgina bir bora kelishi bu umr mobaynida uni kerakli narsalarga sarflashligi haqidagi falsafiy hikoyadir. Bu hikoyaning asosiy qahramoni topshiriq bilan yo'lga chiqadi, bu topshiriq bu Olloh yo'lidagi insonning vazifasi hisoblanib, shu vazifa tufayli inson yo'lga chiqadi. Bu yo'l davomida inson turli to'siqlarga, turli xil voqealarga duch keladi. Hikoyada inson bir piyola suv uchun butun bir umrini yo'qotadi. Ya'ni o'sha yerda kutib turgan qiz bu nafs shu nafs tufayli inson butun bir hayotini bir piyola suvga almashadi. U yerda qiz uni chorlaydi va u chanqog'ini qondirish uchun o'sha saroyga kiradi va u yerda bir piyola suv ichganidan so'ng uning haqqini to'lash uchun safga turadi va mana shu haqning bir piyola suvning haqqi bir umrining butun bir qismini tashkil qiladi. U yerda turgan insonlar uning achinishi, uning qalbidan o'tgan butun bir hissiyotlari va u yerdagi hammaning hech bir insonga gapirgisi kelmayotgani barcha barcha insonlarning mana shu turli xil hayotini mazmunsiz keraksiz narsalarga sarflayotgani va oxir-oqibat bunga ko'nikib ham qolgani ular o'z navbatini kutib charchagan bu hayotdan zerikkan insonlar qiyofasi buni ko'rsatib beradi va mana shu qiyofalar ortida butun bir insoniyatning taqdiri ochib

beriladi . Hikoyada qahramonimiz haqqini to'lab bo'lgandan so'ng o'zini horg'in charchagan va qari holatda o'z qiyofasini ko'radi va bundan juda ham qattiq ta'sirlanadi shunda u yana chanqoqni his qiladi bu chanqoqini qondirish uchun u yana bir piyola suv ichish kerak ammo u bir piyola suvni haqqini yana ado qilish uchun unga juda uzoq vaqt kerak. Shuning uchun u bir piyola suv ichishdan voz kechadi. U yiqilganida tanadagi charchog'ini va barcha horg'inligini aytadi va o'zining aravasidagi o'sha suvning sinishini ko'rganidan so'ng o'zi olib ketayotgan narsa aslida chanqog'ini qoldiruvchi suv ekanligi u buni ko'rmayotgani uni juda ham qattiq ta'sirlantiradi, ya'ni o'zimizga kerakli bo'lgan narsalar doimo yonimizda bo'lishi va biz ularni anglamasligimiz, baxtni, quvonchni uzoqdan izlashimiz va barcha narsani yonimizdan emas balki tashqaridan izlashimiz butun bir hayotimizni besamar ketishiga sabab bo'ladi. Bir piyola suv falsafiy hikoyasi orqali insoniyatga har doim bizga yuklatilgan vazifa nima ekanligini anglashimiz, mana shu vazifa orqali inson o'zini anglashi va butun bir hayotini bemani narsalarga sarflamasligi va doim biz izlayotgan narsalar yonimizda ekanligini aytmoqchi bo'ladi. Hikoya quyidagi jumlalar bilan boshlanadi: "...Menga vazifa yuklatilgan edi. Biroq nima uchun aynan menga? –bilmayman. Kim va qanday vaziyatda topshiriq berdi? –buni ham negadir eslay olmayman. Yodimda qolgani –nimadir ortilgan, ikkita ot qo'shilgan aravani shom tushgunga qadar manzilga eltishim zarur. Nega endi shomga qadar?..."¹. Ushbu boshlanmaning birinchi (Menga vazifa yuklatilgan edi) gapida juda ko'p ma'lumot yashiringan. Birinchidan, mazkur boshlanma garchi asarning boshlanmasi sifatida berilgan bo'lsa ham, o'tgan asr o'zbek hikoyanavisligida an'ana bo'lgan "epigraf" ning ham vazifasini o'tamoqda. Ikkinchidan, mazkur boshlanma jumlada kishining umri davomida amalga oshirishi lozim bo'lgan, ya'ni taqdiri azalga ham ishora seziladi. Shunki, har bir kishiga uning taqdiri oldindan belgilab qo'yilgan bo'lishi haqidagi aqidaga e'tiborni yo'naltirishga xizmat qiladi. Ulug'bek Hamdamning mazkur hikoyasida bunday kuchli ta'sir qiluvchi, bir qarashda oddiydek ko'ringan lekin katta tarbiyaviy ahamiyatga va ifoda etish funksiyasiga ega bo'lgan jumlalarni ko'plab uchratish mumkin. Masalan: "...Ufqlarga tutash kengliklar hislarimni junbishga keltiradi. Ichim to'la hayot, kuchim tanamga sig'may tevarakni titratib hayqiraman – "Uuu–luuu-uuug'!..." Sal o'tmay atrofdanaks-sado qaytadi: "G'uuu-luuu-uuu-uuu!!!" Ilkis cho'chib tushaman, ichim muzlabketadi. Saratonning issig'ida peshonamdan sovuqdan-sovuq ter quyiladi..."¹ Ushbu parchada keltirilgan olamning, borliqning kengligiga va unda inson bir mayda zarra kabi ekanligiga ishora etuvchi "...ufqlarga tutash kengliklar" yoki "...ichim to'la hayot, kuchim tanamga sig'maydi" singari insonning qudrati cheksiz ekanligini ifoda etishga xizmat qiluvchi jumlalar alohida

¹ Hamdamov U. Bir piyola suv, -Tafakkur ziyosi, 14-bet

bayon etish uslubini yuzaga keltirganligini e'tirof etish joiz. Yuqorida keltirilgan parchada o'ziga xos tarbiyaviy qilmamatga ega bo'lган satrlar sifatida "...hayqiraman –“Uuu–luuu–uuug!..” Sal o'tmay atrofdan aks-sado qaytadi: “G'uuu–luuu–uuu–uuu!!!...” o'rnini keltirish lozim. Bu o'rinda “ulug” va “g'ulu”so'zlari o'zaro antiteza hosil qilgan. Bu ikki so'zning qarama-qarshi qo'yilishidan kibr-u havoga berilmaslik, o'zingni juda ham buyuk deb hisoblapping bu –juda katta mubolag'a ekanligi ta'kidlanmoqda. «Bir piyola suv» hikoyasi neomifologizm yo'nalishida yozilgan bo'lib, hikoya ramzlarga va majozlarga boy hisoblanadi. Asarning asosiy g'oyasi insonning butun umr tashqaridan qidirgan narsasining o'zida borligi va buni payqamasligidir. Hikoyadagi qahramonimizning na ismi, na uning tarjimayi holi ochiqlangan. Zero, bu muhim ham emas. Unga topshirilgan va ado etishi zarur bo'lган vazifasi muhim. Vazifa bajarilishi uchun belgilangan vaqt muhim: shomga qadar bo'lган muddat. Biz inson tug'ilishini subhga, o'lishini esa shomga qiyoslaymiz. O'rtadagi vaqt oralig'i umr. Shunday ekan, fikrimcha, hikoyada tongdan shomgacha bosib o'tilishi kerak bo'lган yo'l – umr. Qahramonimiz hech narsaga chalg'imay, sobit qadam bilan bu umrni to'g'ri va oqil holatda bosib o'tishi uning asl vazifasi hisoblangan. Inson tug'ilibdiki, yashayaptiki, u nafas olyaptiki, o'ziga yarasha ehtiyoji, istagi, orzusi bo'ladi. Har bir odamning ehtiyoji ham, istaklari ham qanchalik zaruriylici, qanchalik muhimligi bilan farqlanadi. Inson irodasi orzu-istiklarini qay darajada jilovlay olishi bilan sinaladi. Qahramonimiz chanqadi. Tabiiyki, unda suv ichishga bo'lган ehtiyoj, istak paydo bo'ldi. Endi bu istak uning butun vujudini, o'y-xayolini qamrab oladi. Nima qilib bo'lsa ham uni qondirishi kerak. Uning istagi – suv. Demak, suv bu yerda orzu-istik ramzidir. “Adabiyotda ayol kishi makr, aldov, chalg'ituvchi dunyo, chorlov ramzi bo'lib kelishi ma'lum. Yozuvchi ham ushbu hikoyasidagi karvonsaroy eshigi yonidagi qizni makr timsolida ko'rsatgan.”² Yo'lovchi bir piyola suvga yetishdi va shu bilan uning ehtiyoji qondi. Inson zotining har bir erishajak istagi evaziga to'laydigan badali ham bo'ladi. Bu badal ba'zan yengil, ba'zan esa aksincha. Ayrim kichik istaklar uchun butun umrni tikib yuborganimizni ham sezmay qolamiz ba'zan. Qahramonimiz ham bu safar shunday og'ir badal qarshisida qoldi. U ichgan bir piyolagina suvi uchun tilloga teng vaqtini sarflashiga to'g'ri keldi. Eng alam qilgani — umri evaziga ichib chiqqan bir piyola suvi yuz barobar ortig'i bilan o'zida mavjud edi. Qahramonimizda yetishmagan ozgina ahamiyat, ozgina e'tibor sabab u vazifasini uddalay olmadi. Dog'da qoldi. Aslida, hammamizda ham ushbu holat ko'p sodir bo'ladi. Oldimizga qandaydir (u xoh katta bo'lsin, xoh kichik) maqsadni qo'yamizda, u tomon ildamlaymiz. Yo'ldagi arzimas to'siq, arzimas sabablarga yoki majburiyatlargacha chalg'iymiz va bu orada maqsadimiz

² Karimov N., Nasr baxshisi. – T.: Yangi asrning avlod, 2003.11-bet.

mohiyatini yo‘qotib qo‘yamiz. Hikoyani keng va tor holatda tahlil qilish mumkin: Insonga umri davomida to‘g‘ri yashash vazifasi tug‘ilganidan topshiriladi-yu, ba‘zan chalg‘ishlar sabab odamzot to‘g‘ri yo‘ldan adashadi. Qayta to‘g‘ri yo‘lga tushganda esa umr karvoni o‘z manziliga yetib bo‘lgan bo‘ladi. Kishi o‘z oldiga maqsad qo‘yadi. Unga tomon harakat qiladi. Ammo arzimas yoki arzirli sabablar bilan maqsadi yo‘lidagi harakatlari zoye ketadi. Umriz davomida yon-verimizdan ortig‘i bilan topishimiz mumkin bo‘lganlariga ahamiyat bermasdan uzoqlarga ko‘z tikamiz. Uzoqlarga intilamiz. Ortimizdagи baxtni, omadni, istaganimizni befarqligimiz sabab payqamaymiz. bu hayotiy masala hamisha bo‘lib kelgan, bo‘lyapti ham, bundan keyinam bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Solijonov Y., Ko‘zgudagi hayot., -T., 2013
2. Vladimirova N.O‘zbek hikoyalarida g‘oya va obraz, -T.: Fan, 1989.
3. Hamdamov U. Bir piyola suv, -Tafakkur ziyosi, 14-bet
4. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – T.: Navoiy universiteti, 2018. – 376-b.